

ZAMONAVIY O'ZBEK SHE'RIYATIDA A'ZAM O'KTAM QYOZI

*Jumaboyeva Maqsuda Elmurod qizi,
O'zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar
universiteti magistranti*

THE VOICE OF AZAM OKTAM IN CONTEMPORARY UZBEK POETRY

*Jumaboyeva Maqsuda Elmurodovna,
Master's student Uzbekistan University of Journalism
and Mass Communications*

ГОЛОС АЗАМА ОКТАМА В СОВРЕМЕННОЙ УЗБЕКСКОЙ ПОЭЗИИ

*Жумабоева Максуда Элмуродовна,
магистрант Университет журналистики и
массовых коммуникаций Узбекистана*



e-mail:
jumaboyevamaqsuda4
@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqolada A'zam O'ktam she'riyatidagi poetik ovoz, uning badiiy tafakkur manbalari, obrazlar tizimi va ifoda uslubi tahlil qilinib, shoir ijodining zamonaviy o'zbek she'riyati taraqqiyotidagi o'rni yoritib beriladi. Shu orqali A'zam O'ktam ijodidagi o'ziga xoslik va uning adabiy jarayondagi ahamiyatini ochib berish maqsad qilinadi.

Kalit so'zlar: she'riyat, poetik ruh, ichki kechinma, falsafa, tuyg'u, hissiyot, so'z, shaxsiyat.

Abstract: This article analyzes the poetic voice in A'zam Uktam's poetry, the sources of his artistic thinking, the system of images, and methods of expression, and highlights the place of the poet's work in the development of modern Uzbek poetry. Through this, the study aims to reveal the originality of A'zam Uktam's creative work and its significance in the contemporary literary process.

Key words: poetry, poetic spirit, inner experience, philosophy, feeling, emotion, word, personality.

Аннотация: В статье анализируются поэтический голос в поэзии Азама Октама, источники его художественного мышления, система образов и способы выражения, а также освещается место творчества поэта в развитии современной узбекской поэзии. Тем самым ставится цель раскрыть своеобразие творчества Азама Октама и его значение в современном литературном процессе.

Ключевые слова: поэзия, поэтический дух, внутреннее переживание, философия, чувство, эмоция, слово, личность.



KIRISH. Zamonaviy o'zbek she'riyati bugun nafaqat shakl va uslub jihatidan, balki badiiy tafakkur, poetik ruh va individual ovozlari rang-barangligi bilan ham ajralib turadi. Bu jarayonda har bir ijodkorning adabiy maydonga olib kirgan o'ziga xos ohangi, dunyoni idrok etish usuli va so'zga munosabati muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu masalaga Qozoqboy Yo'ldoshev quyidagicha yondoshadi: "Bugungi odamning ko'ngli bugunning tuyg'ularini tuyadi. Bugungi kishilarning ruhini bezovta qiladigan gaplar bugun aytilgani ma'qul. Binobarin, bugungi she'riyat – bugungi odamning ko'ngil mavjlari. Bugungi odam esa kechagisidan tamomila farq qiladi"¹. Ana shunday betakror poetik ovozlardan biri – A'zam O'ktam ijodida yaqqol namoyon bo'ladi.

A'zam O'ktam she'riyati ichki kechinmalar, ruhiy iztiroblar va zamon odamining murakkab holatini sodda, ammo chuqur poetik ifodalar orqali tasvirlashga intilishi bilan e'tiborni tortadi.

Sahar vaqti yurak yig'lar
Tilab rahm-u shafolatlar.
Duo mendin, nido mendin,
Bo'lur sendin ijobatlar².

She'rda sahar vaqti ruhiy uyg'onish, ixlos va iltijo pallasi sifatida talqin etiladi. "Sahar vaqti yurak yig'lar" misrasi orqali inson qalbining eng nozik, eng samimiy holati ochiladi. Bu yig'i tashqi iztirob emas, balki ichki poklanish, tavba va umid ko'z yoshidir. Sahar payti bandaning Yaratganga eng yaqin onlari, yurak sukut ichida so'zlaydigan damdir. "Tilab rahm-u shafolatlar" satri insonning o'jizligi va bandalik holatini ifodalaydi. Bu yerda shoir o'zini hukmron emas, balki rahmga muhtoj banda sifatida ko'rsatadi. Rahm va shafolat so'zlari ilohiy adolat bilan birga mehr-shafqatga tayanilgan e'tiqodni anglatadi. "Duo mendin, nido mendin" misrasi orqali mas'uliyatning inson zimmasidagi qismi aniq belgilanadi: iltijo qilish, yuzlanish, so'rash bandaning vazifasi. So'nggi misra "Bo'lur sendin ijobatlar" esa umid va ishonch bilan yakunlanadi. Bu yerda natija Yaratganga bog'lanadi javob berish, ijobat qilish — ilohiy irodaga daxldor. Shu tariqa she'rda

banda va Xudo o'rtasidagi ruhiy muvozanat ochiladi. Insondan ixlos va duo, Yaratgandan esa marhamat va ijobat. Umuman, she'r parchasida sahar ramzi orqali duo falsafasi, bandalik kamtarligi va ilohiy rahmatga bo'lgan ishonch mantiqan izchil va yaxlit tarzda ifodalangan.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Adabiyotshunos olim, professor Bahodir Karimov o'rinli ta'kidlaganlaridek, A'zam O'ktamning adabiy shaxsiyati va qiyofasini, iste'dodining asosiy qirrasini she'riy asarlari belgilaydi. Bu she'rlar egasining mavqeyini, obro'sini tabiiy ravishda baland ko'taradi; yaxshi she'rgina shoirni abadiyatga daxldor qiladi. Chunki bu she'riyat egasida ichki bir mag'rurlik, g'olibiyat seziladi; u birovlariga yaltoqlanishni, ayniqsa, haqsizlik qoshida bo'yin egilishini o'ziga ep ko'rmaydi³. Shu o'rinda shoirning "Mamajon hofiz" she'riga e'tibor qarataylik:

Otamni berdim men – to'yimadi bu yer,
onamni yutib ham to'ydim demadi.

Qaridim. Ketish shart. Lekin men hali
aytmagan qo'shig'im bergim kelmadi...⁴

Mazkur to'rtlik chuqur falsafiy mazmuni bilan ajralib turadi va unda umrning o'tkinchiligi, inson taqdirining muqarrarligi hamda hayotga bo'lgan bitmas-tuganmas tashnalik badiiy jihatdan ifodalanadi. "Otamni berdim men – to'yimadi bu yer, onamni yutib ham to'ydim demadi" satrlarida tuproq oddiy makon sifatida emas, balki o'lim va abadiyat ramzi sifatida talqin etiladi. Yer insonni bag'riga olaveradi, biroq hech qachon "to'ydim" demaydi. Bu hol umrning cheklanganligi va inson hayotining tabiat oldidagi o'jizligini ko'rsatadi. Keyingi "Qaridim" degan qisqa, ammo mazmunan og'ir jumla vaqtning shafqatsiz kechishini, inson umrining sezilmas holda o'tib borishini ifodalaydi. Ota-onadan ayrilish insonni erta ulg'aytiradi, uni hayotning muqarrar haqiqatlari bilan yuzma-yuz qo'yadi. "Ketish shart" degan satr taqdir qonunining inkor etib bo'lmasligini bildiradi. "Lekin men hali aytmagan qo'shig'im bergim kelmadi". Bu misralarda insonning umrga to'yimasligi, yashash va ijodga bo'lgan ehtiyoji yorqin namoyon bo'ladi.

¹ Ёўлдош Қ. Очқич сўз. Тошкент: Тафаккур нашриёти, 2019. Б. 75.

² O'ktam A'zam. Ko'kdan yog'ilgan nur. — Toshkent: Adabiyot, 2021. B. 32.

³ Карим Баҳодир. Рухият алифбоси. — Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2018. — Б. 129.

⁴ O'ktam A'zam. Ko'kdan yog'ilgan nur. — Toshkent: Adabiyot, 2021. B. 32.

NATIJARLAR. A'zam O'ktam she'riyatining eng muhim va ajralmas jihatlaridan biri – undagi Allohga yaqinlik, ilohiy ruh va ma'naviy poklanishga intilishdir. Shoir uchun she'r faqat estetik hodisa yoki hissiy kechinmalar ifodasi emas, balki imon, e'tiqod va ruhiy mas'uliyat bilan bog'liq muqaddas holatdir. Shu ma'noda Xayrulla Hamidov tomonidan A'zam O'ktamga nisbatan qo'llangan "she'riyat dindori" ta'rif mutlaqo asosli va chuqur mazmunga ega. Bu ta'rif shoir ijodidagi ilohiy mohiyat, Alloh bilan ichki muloqot, so'z orqali Haqni izlash jarayonini aniq ifodalaydi. "A'zam O'ktam iymon-e'tiqodli inson sifatida yuragini qog'ozga to'kar ekan, ijodi uchun adabiy mezonni, chegaralarni aniq belgilab oladi:

Bir kishi holidan, Olloh,
Saqlagil, bergil amon-
Uxlagay mo'min bo'lib ul,
Uyg'onur kofir bo'lib!"⁵

A'zam O'ktam diniy qadriyatlarni she'rga ko'chirarkan, ularni shoir yoki tashviq darajasida emas, balki qalb kechinmasi, ichki iztirob va ixlos bilan uyg'unlashtiradi. Uning misralarida hadislar, Qur'oniy hikmatlar bevosita iqtibos tarzida emas, balki badiiy talqin, ramziy obrazlar va poetik fikrlash orqali jonlanadi. Natijada diniy g'oya she'r matnida sun'iy yoki og'ir yuk sifatida emas, balki tabiiy ruhiy ehtiyoj sifatida namoyon bo'ladi.

MUHOKAMA. Shoir ijodida tavba, sabr, shukr, taqvo, dunyoning o'tkinchiligi kabi islomiy tushunchalar markaziy o'rin tutadi. Bu tushunchalar A'zam O'ktamda abstrakt falsafiy mulohaza darajasida emas, balki inson taqdiri, umr sinovlari, ichki kurash va ma'naviy yetilish jarayoni bilan chambarchas bog'langan holda ifodalanadi. U insonni Allohga yaqinlashtiruvchi yo'lni tashqi ibodat bilangina emas, balki qalb pokligi, niyatning sofligi va mas'uliyatli yashash orqali ko'rsatadi. Jumladan, "Ne'mat" she'ri:

Ramazon – mashaqqat, sinovlar oyi,
O'ttiz qorong'u kun, o'ttiz yorug' tun.
Tonglar nasib etdi toza havo-yu
Bulbulning ovozin saharlik uchun.

Achchiq so'z chiqmaydir – yopiqdir
og'zim,

Birovga qadalib tikilmak tamom.

Ko'ngil to'q, ruh yengil.

Xushbaxtman o'zim –

Gul isin iftorlik uchun berdi shom.⁶

A'zam O'ktam she'riyatida banda va Yaratuvchi munosabati nihoyatda nozik va samimiy talqin etiladi. Shoir ko'pincha o'zini o'z banda sifatida tasvirlab, Haq oldidagi mas'uliyat, qo'rquv va umid tuyg'ularini bir vaqtning o'zida ifodalaydi. Bu hol uning she'rlariga chin dindorlikka xos kamtarlik va ixlos bag'ishlaydi. Shoir uchun Allohga yaqinlik balandparvoz da'volar emas, balki ichki hisob-kitob, vijdoniy so'roq va ma'naviy uyg'unishdir.

Meni ham tinglayurmi deb

Gumonlar o'rtayur, chunkim,

Gunohdan charchagan badbaxt

Qilur tinmay tilovatlar⁷.

"A'zam O'ktam she'rlari bilan tanishayotgan o'quvchi uning millat taqdiriga befarq emasligiga ishonch hosil qiladi. Xalqimizning boy, madaniy, va ma'rifiy merosi, milliy qadriyatlari, an'ana-yu urf-odatlar, turmush tarzidagi axloqiy tamoyillarni qadrlagan shoir o'zining milliy g'ururga to'yintirilgan isyonkor she'rlari bilan mustabid tuzum qutqulariga qarshi turdi", – Qarshi davlat universiteti o'qituvchisi Nilufar Umarova⁸. A'zam O'ktam she'riyatida o'zbek adabiy jarayonida milliylik, o'ziga xoslik hamda diniy-ma'naviy ruhni zamonaviy poetik tafakkur bilan uyg'unlashtira olgan noyob hodisa sifatida namoyon bo'ladi. Uning ijodida xalq ruhiyati, milliy tafakkur, urf-odat va an'analari islomiy e'tiqod, Qur'on va hadis mazmunlari bilan mushtarak holda badiiy ifoda topadi. Shoir milliy dunyoqarashga xos obrazlar, xalqona ohang, qadimiy ramzlar va so'z boyligidan unumli foydalanib, o'ziga xos poetik uslub yaratadi. Bu jihat A'zam O'ktam she'riyatini nafaqat diniy, balki milliy-estetik hodisa sifatida ham qadrlashga imkon beradi.

⁵ Карим Баходир. Рухият алифбоси. — Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2018. — Б. 131.

⁶ O'ktam A'zam. Ko'kdan yog'ilgan nur. — Toshkent: Adabiyot, 2021. B. 40.

⁷ O'ktam A'zam. Ko'kdan yog'ilgan nur. — Toshkent: Adabiyot, 2021. B. 32.

⁸ A'zam O'ktam ijodida milliylikning lirik talqini // Til va adabiyot ta'limi jurnali. — 2021. — № 4. — B. 27.

XULOSA. A'zam O'ktam ijodida milliylik faqat mavzu doirasida emas, balki badiiy tafakkur va ifoda usulida ham yaqqol seziladi. Uning she'rlarida tuproq, ona zamin, ota-bobo ruhi, xalqona tasavvur va qadriyatlar Allohga yaqinlik, e'tiqod va ma'naviy poklanish g'oyalari bilan uyg'unlashadi. Shoir diniy tushunchalarni quruq nasihat shaklida emas, balki milliy ruh bilan sug'orilgan ramziy obrazlar, lirizm va falsafiy mushohada orqali ifodalaydi. Natijada she'rlar zamonaviy o'quvchi tafakkuriga mos, ammo milliy ildizlardan uzilmagan badiiy yaxlitlik kasb etadi.

Hadislar va diniy qadriyatlar A'zam O'ktam she'riyatida bevosita iqtibos tarzida emas, balki ularning mazmun-mohiyati va axloqiy ruhi orqali namoyon bo'ladi. Shoir shukur, sabr, tavba, duo kabi tushunchalarni milliy hayot tajribasi, xalqona hikmat va ruhiy kechinmalar bilan bog'lab talqin etadi. Bu esa o'quvchini Allohni eslashga, umrning foniyiligini anglashga, milliy va diniy o'zlikni chuqur his etishga chorlaydi. She'r o'quvchi uchun nafaqat badiiy zavq manbai, balki ma'naviy va ruhiy kamolot yo'liga boshlovchi vositaga aylanadi.

Shu bois A'zam O'ktamni nafaqat diniy mavzuda ijod qilgan shoir, balki milliy ruh va e'tiqodni so'z orqali uyg'unlashtira olgan, o'ziga

xos poetik ovoz egasi sifatida baholash mumkin. Uning ijodi zamonaviy o'zbek she'riyatida milliylikni asrab qolish, uni diniy-ma'naviy mazmun bilan boyitish borasida muhim ahamiyat kasb etadi. "She'riyat dindori" sifatida e'tirof etilishi ham aynan shu jihatlar bilan bog'liq: A'zam O'ktam so'zni e'tiqod darajasiga ko'targan, milliy ruhni ilohiy ma'nolar bilan uyg'unlashtirgan va adabiyotimizda o'ziga xos, takrorlanmas ijodiy qiyofa yaratgan shoirdir.

ADABIYOTLAR RO'YXATI (REFERENCES):

1. A'zam O'ktam ijodida milliylikning lirik talqini // Til va adabiyot ta'limi jurnali. – 2021. – № 4. – b. 8.
2. A'zam O'ktam. Ko'kdan yog'ilgan nur. — Toshkent: Adabiyot, 2021. – b. 102.
3. Карим Баходир. Рухият алифбоси. — Тошкент: Фафур Фулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2018. – б. 358.
4. Йўлдош Қ. Очқич сўз. Тошкент: Тафаккур нашриёти, 2019. –б. 685.

